

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.FM.19.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**XOMIDJONOV JAXONGIR ISROILJONOVICH**

**OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA TIBBIYOT FIZIKASI FANINI  
INTEGRATIV O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
In pedagogical sciences**

**Xomidjonov Jaxongir Isroiljonovich**

Oliy ta'lim muassasalarida tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish metodikasini takomillashtirish.....3

**Хомиджонов Жахонгир Исроилжонович**

Совершенствование методики интегративного преподавания медицинской физики в высших учебных заведениях.....22

**Xomidjonov Jaxongir Isroiljonovich**

Improving the methodology of integrative teaching of medical physics in higher educational institutions.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published work.....50

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI FIZIKA  
– MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY  
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.FM.19.04 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**XOMIDJONOV JAXONGIR ISROILJONOVICH**

**OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA TIBBIYOT FIZIKASI FANINI  
INTEGRATIV O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.3.PhD./Ped3909 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya annotatsiyasi uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ispm.uz](http://www.ispm.uz)) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bozorov Erkin Xojievich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

pedagogika fanlari doktori, professor

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

Dissertatsiyaning himoyasi Farg‘ona davlat texnika universiteti huzuridagi fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/2025.27.12.FM.19.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «\_\_\_» \_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150107, Farg‘ona sh. Farg‘ona k. 86 uy. Tel.: (+99873) 241-12-06, faks (+99873) 241-12-06, e-mail: [uzferfizika@mail.ru](mailto:uzferfizika@mail.ru), kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat texnika universitetining axborot–resurs markazi ilmiy-uslubiy bo‘limida tanishish mumkin. ( \_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150107, Farg‘ona sh. Farg‘ona k. 86 uy. Tel.: (+99891) 328-32-69).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi. (2026-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**N.X. Yuldashev**

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi  
Ilmiy Kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**B.J. Axmadaliyev**

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi  
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, f.-m.f PhD, dotsent

**S.M Otajonov**

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi  
Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim va ilm-fan mazmunini innovatsion yondashuvlar, ilg'or texnologiyalar orqali takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning fizik tajriba va tadqiqotlarga keng miqyosda tatbiq etilishi, tibbiyot fizikasining xalqaro miqyosda kengayishi, ushbu sohaning qamrovini kengaytirib, o'zaro integratsiyani kuchaytirmoqda. Ayniqsa, tibbiyot sohasidagi global muammolarni hal qilishda turli yo'nalishlarning uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, fizikaning tibbiyot rivojida birgalikda ishlaydigan zamonaviy kompetensiyaga ega mutaxassislarni tayyorlash masalasining dolzarbligi yanada oshib bormoqda. Insonning ijodiy faoliyatini global axborot-ta'lim muhiti sharoitida rivojlantirish, tibbiyot fizik mutaxassislarning izlanish va innovatsion qobiliyatlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida yangi didaktik vositalarni yaratish va ularni takomillashtirish zaruriyati ortib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalarida tibbiyot uchun mo'ljallangan zamonaviy texnika va uskunalari – kompyuter tomografiyasi, rentgen apparatlari, pozitron-emission tomografiya, yadro-magnit rezonans tomografiyasi, proton va neytron qamrash terapiyasi, foton terapiyasi kabi qurilmalar va ularni boshqaruvchi avtomatik tizimlar bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash talab qilinmoqda.

Mamlakatimizda tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish va yadro texnologiyalarini barcha sohalarida keng qo'llashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yadro tibbiyoti texnologiyalarining biologiya va farmatsevtika bilan uzviy bog'liqligi bu sohadagi zamonaviy dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishni dolzarb ilmiy yo'nalishga aylantirmoqda. Tibbiyotda radionuklid vositalari bilan ishlashda xavfsizlik talablarini oshirish zaruriyati mazkur texnologiyalarda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash muhimligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan yadro tibbiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan yadro diagnostikasi va terapiyasi (rentgenologiya, pozitron-emission tomografiya va yadro-magnit rezonans tomografiyasi) kabi texnologiyalar tibbiyot amaliyotida samaradorlikni oshirib, boshqa sohalarida, jumladan, materialshunoslik va mikroelektronika uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Yadro texnologiyalarini rivojlantirish, innovatsion metodlarni joriy etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyat mustahkamlashni talab etadi. Bu jarayonlar orqali nafaqat tibbiyot sohasida, balki iqtisodiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi innovatsion yondashuvlar shakllandi. Ushbu texnologiyalar tibbiyot texnikasi uchun ilmiy yechimlar taklif qila oladigan va yuqori saviyali kadrlar tayyorlashni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27 - sonli, 2022 yil 6 iyuldagi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-sonli, 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli, 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli, 2023 yil 5 iyundagi "OTMda ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli, 2019 yil 16 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining yadro-energetika dasturi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4492-sonli, 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy – tadqiqot ishlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-sonli qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganganlik darajasi.** Tibbiyot fizikasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha yurtimiz olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, R.B.Bekjonov, B.Mirzaxmedov, K.A.Tursunmetov, K.Nasriddinov, M.I.Bozorboyev, S.Qahhorov, M.Qurbonov, Q.Tursunov, M.Djorayev, S.Zaynobidinov, Yu.G‘.Maxmudov, G‘.I.Muxammedov, H.Jo‘rayev va G.Karlibayevalar bu sohada dolzarb masalalarni tadqiq qilish bilan shug‘ullanganlar. Ularning tadqiqot ishlari ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalarning fanni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan bo‘lib, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.Abduqodirov, M.Aripov, U.Beginqulov, N.Taylaqov, R.Ishmuhammedov, N.Sayidahmedov va N.Azizxo‘jayevlar ta’lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratib, bu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishganlar. Ularning ilmiy izlanishlari innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda, o‘quv materiallarini loyihalash, axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish bu jarayonni samarali tashkil etish yo‘nalishlariga qaratilgan. Mazkur ilmiy-tadqiqotlar zamonaviy ta’lim jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirishda muhim hissa qo‘shmoqda.

Xorijlik olimlardan M.Harris, H.Khalid, Y.M.Lee, H.Kim, H.Yoon, C.M.Lederer, J.M.Hollander, I.Perlman, F.Zhang va X.Yanglarning tadqiqot ishlari ta’lim mazmunini loyihalash, nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ularning ilmiy-tadqiqot ishlari innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish va ta’lim jarayonida qo‘llash samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

OTMda shu kungacha Tibbiyot fizikasi faniga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va didaktik materiallarni ishlab chiqish va ularni integrativ o‘qitish metodikasi bugungi kunning innovatsion texnologiya talablari doirasida takomillashtirilmaganligidan xabar beradi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan uzviy bog‘liq holda olib borilgan. Tadqiqot AM-PZ-2019062031 “Yadro energetikasi”, “Yadro tibbiyoti va texnologiyasi”, “Radiatsiya tibbiyoti va texnologiyasi” fanlari bo‘yicha bakalavr va magistrlar uchun multimedia darsliklarini yaratish” nomli innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** oliy ta’lim muassasalarida tibbiyot fizikasi fanini integrativ o‘qitish asosida tibbiyot fizik mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

ergonomik va texnik-pedagogik talablarni hisobga olgan holda zamonaviy diagnostika va davolash uskunalarini bilan ishlashda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tibbiyot fizikasi fanini integrativ o‘qitish metodologiyasining tashkiliy-didaktik xususiyatlarini aniqlash va asoslash.

talabalarning kognitiv faolligini oshirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida Android platformasida ishlovchi elektron darslik va mobil ilovani ishlab chiqish, joriy etish va ularning samaradorligini aniqlash.

talabalarning o‘rganish va ijodiy faolligini kuchaytirish, tibbiy diagnostika va terapevtik muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan integrativ o‘qitishga mo‘ljallangan kompleks didaktik modelni ishlab chiqish va amaliyotda sinovdan o‘tkazish.

tibbiyot fizikasi fanini o‘qitishning didaktik, o‘quv va metodologik ta’minotini takomillashtirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish hamda ularning o‘quv jarayoni samaradorligiga ta’sirini baholash.

**Tadqiqotning ob'ekti:** tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba – sinov ishlariga O'zMUdan 149 nafar, SamDUdan 146 nafar, ToshDTUdan 145 nafar, BuxDTUdan 159 nafar, jami 599 nafar talaba jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmeti:** tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

**Tadqiqot usullari:** dissertatsiyada qo'llaniladigan ilmiy va o'quv adabiyotlarining qiyosiy, tanqidiy tahlili, nazariy tahlili, anketa so'rovnomalari, kuzatish, suhbat, tajriba-sinov, baholash, tadqiqot natijalarini matematik – statistik metodlar yordamida tahlil qilish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ergonomik va texnik-pedagogik talablarni hisobga olgan holda zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan ishlashda talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tibbiyot fizikasi fanini o'qitishning integrativ metodologiyasi yangi avlod o'quv materiallaridan foydalanish asosida takomillashtirilgan va tashkiliy-didaktik xususiyatlari aniqlashtirildi;

talabalarining kognitiv faolligini faollashtirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali tibbiyot fizikasi fanini o'qitish sifati va samaradorligini oshirishni ta'minlovchi integrativ o'qitish metodologiyasi Android platformasida interaktiv muhitda ishlaydigan elektron darslik va mobil ilovani joriy etish orqali takomillashtirildi;

tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitishga mo'ljallangan talabalarining o'rganish va ijodiy faolligini oshirish, tibbiy diagnostika va terapevtik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'quv jarayonini tashkil etish hamda mazmunini takomillashtirishga qaratilgan o'qitish usullarining kombinatsiyasini o'z ichiga olgan innovatsion elektron o'qitish, pedagogik va metodologik yondashuvlarga asoslangan kompleks didaktik model ishlab chiqildi;

tibbiyot fizikasi fanini o'qitishning didaktik, o'quv va metodologik ta'minotini takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilib, o'quv jarayonining samaradorligini va talabalarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga hissa qo'shadigan kompleks o'quv muhiti tizimli va didaktik yondashuvlarni integratsiyalashga asoslangan holda takomillashtirildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilar bilan ifodalanadi:

talabalarining tibbiyot fizikasi fani bo'yicha mustaqil tanqidiy, kreativ fikrlash qobiliyatlari va kuzatuvchanliklarini rivojlantirish, yangi materiallarni samarali o'zlashtirish, nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, nazorat topshiriqlari, test sinovlari va dars ishlanmalari ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llash uchun tegishli taklif va tavsiyalar taqdim etilgan;

talabalarining nazariy bilimi, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini takomillashtirish maqsadida "Qattiq jismlar va biomexanika asoslari," "Gidrodinamikaning fizik asoslari," "Tirik organizmlarda elektr toki," "Общая и медицинская электроника," "Квантовая биофизика. Основы фотометрии," "Биофизические основы действия ионизирующего излучения на организм и его применение" kabi o'quv-metodik qo'llanmalarining yangi avlodi ishlab chiqilib, ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

professor-o'qituvchilar va talabalarining tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish bo'yicha metodik tayyorgarligini rivojlantirish uchun "Ionlashtiruvchi nurlanishlarning organizmga ta'sirini biologik, fizik va pedagogik asoslari" nomli elektron hisoblash mashinalari uchun mo'ljallangan mobil ilovaga asoslangan ta'lim texnologiyasi ishlab chiqilgan;

talabalarining nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini mustahkamlash maqsadida tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitishga yo'naltirilgan "Tibbiyot fizikasi asoslari" darsligi va "Tirik organizmlarda biomexanika, gemodinamikaning pedagogik asoslari" elektron o'quv qo'llanma dasturi ishlab chiqilib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan innovatsion yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi bilan tasdiqlanadi. Tajriba-sinov ishlarining natijalari matematik-statistik metodlar yordamida tahlili ilmiy asoslangan bo'lib, ularning samaradorligi aniqlangan. Tadqiqot metodlarining belgilangan vazifalarga muvofiq qo'llanilishi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga

muvaffaqiyatli joriy etilishi, ilgari surilgan ilmiy g'oyalarning tajriba-sinov ishlarida olingan ijobiy natijalari va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi tadqiqot ishining ishonchlilikini ortirgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xorijiy tajribalar asosida tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan didaktik modelning ishlab chiqilishi bilan ta'minlangan. Zamonaviy tibbiyot fizikasi fanini strukturalar va obyektlarga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida o'qitish, talabalarning bilimni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini diagnostik tahlil qilish, ochiq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitining joriy etilishi orqali ilmiy asoslangan natijalarga erishish imkoni yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati taklif etilgan tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish metodikasini takomillashtirish asosida ko'rsatilgan. Ishlab chiqilgan metodika talabalarning kreativ fikirlashlarini rivojlantirish, o'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilish orqali ularning o'quv-ijodiy va kasbiy faoliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** ergonomik va texnik-pedagogik talablarni hisobga olgan holda zamonaviy diagnostika va davolash uskunalar bilan ishlashda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tibbiyot fizikasi fanini o'qitishning integrativ metodologiyasi yangi avlod o'quv materiallaridan foydalanish asosida takomillashtirilgan va tashkiliy-didaktik xususiyatlari aniqlashtirilishiga oid takliflar tibbiyot fizikasi asoslari darsligining mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentabrdagi 302-son ma'lumotnomasi), (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023 yil 23 fevraldagi 08-04812 son ma'lumotnomasi). Natijada, tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid metodik-didaktik ta'minot yaratilgan;

talabalarning kognitiv faolligini faollashtirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali tibbiyot fizikasi fanini o'qitish sifati va samaradorligini oshirishni ta'minlovchi integrativ o'qitish metodologiyasi Android platformasida interaktiv muhitda ishlaydigan elektron darslik va mobil ilovani joriy etish orqali takomillashtirilishiga oid taklif va tavsiyalar "Ionlashtiruvchi nurlanishlarning organizmga ta'sirini biologik, fizik va pedagogik asoslari" mobil ilova (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomasi № DGU-31630) ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga olgan dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish orqali takomillashtirilgan va "Tirik organizmlarda biomexanika va gemodinamikaning pedagogik asoslari" nomli elektron-o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomasi olingan № DGU-31629);

tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitishga mo'ljallangan talabalarning o'rganish va ijodiy faolligini oshirish, tibbiy diagnostika va terapevtik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'quv jarayonini tashkil etish hamda mazmunini takomillashtirishga qaratilgan o'qitish usullarining kombinatsiyasini o'z ichiga olgan innovatsion elektron o'qitish, pedagogik va metodologik yondashuvlarga asoslangan kompleks didaktik model ishlab chiqilishiga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti (O'z R F A YaFI) ning AM-PZ-2019062031-sonli (O'z R F A YaFIning 2017 yil 17 noyabrdagi №-32-2115-907-sonli ma'lumotnomasi), "Nur terapiyasining binar texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar, foton-qamrash terapiyasi va neytron qamrash terapiyasi" (O'z R F A YaFI ning 2023 yil 17 noyabrdagi №-32-2115-908-sonli ma'lumotnomasi), "OT-F2-24 Fotonlarning Sm, Gd, Au, Bi elementlari bilan o'zaro ta'sirida yuzaga keluvchi ikkilamchi zarrachalarning tavsifnomalarini o'rganish" (O'z R F A YaFI ning 2023 yil 17 noyabrdagi № 32-2115-906-sonli ma'lumotnomasi) nomli innovatsion loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan. Mazkur loyihalar tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish metodikasini takomillashtirish sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan, talabalarning motivatsiyasini kuchaytirishga yordam bergan;

tibbiyot fizikasi fanini o'qitishning didaktik, o'quv va metodologik ta'minotini takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilib, o'quv jarayonining samaradorligini va talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga hissa qo'shadigan kompleks o'quv muhiti tizimli va didaktik yondashuvlarni integratsiyalashga asoslangan holda takomillashtirilishiga oid taklif va tavsiyalardan "Qattiq jismlar va biomexanika asoslari," "Gidrodinamikaning fizik asoslari," "Tirik organizmlarda elektr toki," "Общая и медицинская электроника," "Квантовая биофизика. Основы фотометрии," "Биофизические основы действия ионизирующего излучения на организм и его применение" kabi o'quv-metodik qo'llanmalarning yangi avlodi ishlab chiqishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025 yil 5 avgustdagi № 04/11-10018 - sonli ma'lumotnomasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025 yil 5 avgustdagi 02/0101-310-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali tibbiyot fizikasi fanini samarali o'qitilishini ta'minlab, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga katta hissa qo'shgan;

**Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 25 ta ilmiy-metodik ish nashr etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta elektron-o'quv qo'llanma va 1 ta mobil ilova dasturi, 6 ta o'quv-metodik qo'llanmalarga mualliflik guvohnomalari berilgan.

Bundan tashqari, 1 ta elektron o'quv-qo'llanma, 1 ta mobil ilova dasturi, tibbiyot fizikasi darsligi talablariga va dasturiy ta'lim vositalariga asoslanib umumlashtirilgan model, tibbiyot fizikasi fanining innovatsion integratsion ta'lim dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu ishlarga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvohnomalari berilgan. Guvohnoma № DGV – 31629.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari uchun asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola e'lon qilingan bo'lib, shundan 2 tasi xorijiy, 8 tasi respublika ilmiy-metodik jurnallarida nashr qilingan.

Ilmiy ishlanmalarning barchasi tibbiyot fizikasi fanini o'qitishni takomillashtirish va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan bo'lib, ilmiy va amaliy yondashuvlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, 132 sahifa matn, rasm, jadval, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

### **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot muammosining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari va ob'ekti hamda predmeti tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'lim muassasalarida tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish metodikasini takomillashtirishning asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida TF fanini o'qitish ta'lim jarayonida talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda ijodkorlik fikrlashini o'stirish, ilmiy tasavvurlarini boyitishda ta'lim nazariyasining muhim yondashuvlari bo'lajak tibbiyot fizik mutaxassislarining (TFM) kreativ fikrlashini rivojlantirishda yuqoridagi innovatsion yondashuvlarni anglash jarayonini o'rinli tashkil etish har bir fan o'qituvchisining oldidagi asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Pedagogning asosiy vazifasi bo'lajak TFMning kreativ fikrlash qobiliyati va ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirish, tushinish va anglash jarayonlarini to'g'ri shakllantirishdir. Bu maqsadga erishishda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

o'quv jarayonida innovatsion, qiziqarli metodlardan foydalanish; o'qituvchilarning chuqur bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi; darslik va dasturlarning mazmungan boy va didaktik jihatdan mukammal bo'lishi; zamonaviy texnik bazalar va qulay o'quv sharoitlarini ta'minlash; axborot-kommunikatsiya vositalari hamda ilg'or metodikalarni keng joriy qilish; sanitariya-gigiena, xavfsizlik, psixologik sharoitlarga rioya etish; insoniy munosabatlar va demokratik tamoyillarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, TF fanini o'qitish metodikasi innovatsion texnologiyalari asosida yangilash zarur. Bu jarayon innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik vositalar bilan mustahkamlashni taqozo qiladi. O'qitish metodikasini takomillashtirishda didaktik va texnik imkoniyatlarni uyg'unlashtirish muhim, bu esa talabalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. O'quv-uslubiy bazaning boyitilishi ta'lim sifatini oshirib, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

TF fanida o'qitiladigan tashxis qo'yuvchi tibbiyot qurilmalar haqida batafsil ma'lumot beriladi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval.**

| <b>Zamonaviy tashxis qo'yuvchi tibbiyot qurilmalari</b> |
|---------------------------------------------------------|
| Kompyuter tomografiyasi                                 |
| Rentgen kompyuter tomografiyasi                         |
| Yadromagnit rezonans tomografiyasi                      |
| Pozitron emission tomografiyasi                         |
| Bir fotonli emissiya kompyuter tomografiyasi            |
| Multispralni kompyuter tomografiyasi                    |

Tibbiyot qurilmalarining tuzilishi va ishlash tamoyillarini o'rgatishda bugungi va kelajakdagi Tibbiyot fizikasi fanining ahamiyatini talabalarga anglatish muhim hisoblanadi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining uzviy bog'liqligi ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Tibbiyot fizikasi fanidan auditoriya soatlarining 22 soati ma'ruza mashg'ulotlari, 22 soati amaliy mashg'ulotlar, 30 soati laboratoriya mashg'ulotlari uchun taqsimlangan. Tibbiyot fizikasi yo'nalishlari o'quv rejasining Tibbiyot fizikasi faniga haftalik 4 soat vaqt ajratilgan bo'lib, 1 semestrda 4 kreditni tashkil qiladi (2-jadvalga qarang).

**2-jadval**

**Tibbiyot fizikasi fani modulining umumiy tavsifi**

| <b>Fan/modul kodi</b><br><b>TF2:2306</b> |                                         | <b>O'quv yili</b><br><b>2024-2025</b> | <b>Semestr</b><br><b>4</b> | <b>ECTS - kreditlar</b>                    |                      |
|------------------------------------------|-----------------------------------------|---------------------------------------|----------------------------|--------------------------------------------|----------------------|
| <b>T/r</b>                               | <b>Fan/modul turi</b><br><b>Tanlov</b>  | <b>Ta'lim tili</b><br><b>O'zbek</b>   |                            | <b>Haftadagi dars soatlari</b><br><b>4</b> |                      |
| 1.                                       | Fanning nomi                            | Auditoriya mashg'ulotlari (soat)      |                            | Mustaqil ta'lim (soati)                    | Jami yuklama (soati) |
| 2.                                       | Tanlov fani: Tibbiyot fizikasiga kirish | 60                                    |                            | 60                                         | 120                  |

Talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun muayyan mavzularda qisqa vaqt ichida yechim topish mahoratini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Boshqacha aytganda, o'quv materiallarini hayotiy holatlarga yo'naltirib, ularni real muammolar bilan bog'lash, mazkur o'qitish usulining samaradorligini oshiradi. O'qituvchilar esa talabalarga maxsus tayyorlangan o'quv materiallarini taqdim etib, nazariy bilimlarni o'zlashtirish

jarayonida talabalarni faol va kreativlashga undashi lozim. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muhokama qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish didaktik jihatdan o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalarida tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobda TF fani bo'yicha mustaqil ishini tashkil etishga imkon beruvchi (Yandex Drive, Google Drive va boshqalar) joylashtirish mumkin bo'lgan “Annotatsiya”, “Nazariy material”, “Glossariy”, “Topshiriqlar matnlari”, “Topshiriqlarni bajarish”, “Baholash jurnali”, “Ma'lumotlar manbasi” modullarni o'z ichiga olgan mobil ilova dasturi ishlab chiqilgan.

TF fani mazmunini ko'rib chiqishda, eng avvalo, uning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish lozim. Birinchidan, turli xil tibbiy asbob-uskunalar orqali o'rganishni osonlashtiradigan texnika va vositalar mavjud bo'lib, masalan, radiatsiya xavfsizlik me'yorlari va ionizatsiyalovchi nurlanishning xossalari asosida amaliy tajribalar keng tarqalgan. TF fanini samarali o'rgatish uchun nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlarni shakllantirishda elektron modellashirish usullaridan foydalanish talab etiladi, chunki kompyuter tomografiyasi, rentgen spektri va boshqa tibbiy uskunalar tuzilishini vizualizatsiya qilish orqali o'quvchilar masalalarni tushunib o'rganishga yordam beradi. Ushbu jarayonlar orqali fanni tushuntirish usullari yanada mustahkamlanadi. Tibbiyotda qo'llaniladigan uskunalar model asosida tushuntirish ko'plab murakkab tajribalarni o'tkazish imkonini beradi. Model yaratishda nazariy tamoyillar va amaliy jarayonlarni muvofiqlashtirish zarur bo'ladi. Shu bois, rentgen nurlanishlari bilan bog'liq ko'plab usullarda strukturaviy tahlil usullaridan foydalaniladi. Raqamli tasvirlar orqali talabalarga tushuntirish natijasida, o'rganish jarayonlari yanada samarador bo'ladi, bu esa mavzuni to'liq o'zlashtirishga xizmat qiladi. TF fanini asosiy bilimlarini yetkazadigan va mustahkamlaydigan o'quv dasturlari hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish; klinik va nazariy mashg'ulotlarni uyg'un tarzda tashkil etish, bu jarayonda tibbiy kurslarda faol amaliyotdan foydalanish.

Tibbiyot fanlari bo'yicha kurslarda klinik vaziyatlarni yaratish va ularni tahlil qilish uchun talabalarning muayyan o'quv materiallarini chuqur tushunib o'rganishlari talab qilinadi. Tibbiyot uskunalar bilan ishlashga oid nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tibbiy parametrlarga asoslangan holda tashkil etish va o'quvchilarning bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirish muhim.

Laboratoriya va amaliy ishlarga oid ko'nikmalarni rivojlantirish, tibbiyot uskunalaridan foydalanishni chuqurlashtirish, turli diagnostika va jarrohlik amaliyotlarini tahlil qilish hamda tibbiy bilimlarni real holatlarda qo'llash malakalarini shakllantirishni talab qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar tibbiyot uskunalar bilan ishlash jarayonlarini puxta nazorat qilish va haqiqiy klinik vaziyatlarda terapevtik va jarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlash zarur.


Nazariy bilimlarni puxta, chuqur o'rganish, umumlashtirish va ijodiy qayta ishlash, amaliy va eksperimental ishlarni aniq rejalashtirish hamda amalga oshirish orqali talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish lozim.

Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan rejalashtirilgan yondashuvlar bir-biriga uzviy bog'langan bo'lib, o'qitishning har bir bosqichida eng oqilona kombinatsiyalarni topish talabaning yuqori malakali bilim olishini va o'qitish jarayonining samaradorligini belgilab beradi. TF ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi yondashuvlardan foydalanildi.

**Mantiqiy yondashuv:** bu yondashuv TFMning innovatsion kasbiy faoliyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarni ishlab chiqish, kasbiy talablarni chuqur tahlil qilish va ta'lim dasturlarini tarkibiy rejalashtirish orqali fanlararo integratsiyaning ta'minlash zarur. Ixtisoslashtirish modelini o'quv dasturini aniq maqsadlarga yo'naltirish va jarayonda izchillikni saqlash orqali takomillashtirish mumkin. Talabalarning tanqidiy, kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim omil bo'lmoqda.

**Evristik yondashuv** metodi talabalarning mustaqil, kreativ fikrlash va tahliliy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'qituvchi muammoli savollar va vaziyatlar yaratib,

talabalarni bilimlarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topishga undaydi. Metod uch bosqichdan iborat: bilimlarni takrorlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish va yakuniy natijalarni muhokama qilish. Ushbu yondashuv talabalarni kreativ mantiqiy fikrlashga o'rgatib, ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Talabalarda darsga tayyorgarlik jarayonida berilgan savollarni mantiqiy va bir-biriga bog'langan shaklda tuzadi, talabalarni mustaqil xulosalar chiqarishga yo'naltiradi.



**1-rasm. OTMda Tibbiyot fizikasi fanini integrativ o'qitishning takomillashtirilgan modeli**

Didaktik maqsadlar asosida to'g'ri savollar berish muhim bo'lib, metodik muloqot orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Subhat uch turga bo'linadi: kirish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va umumlashtiruvchi yoki yakuniy subhat.

**Integrativ yondashuv.** Bu yondashuv tizimni tashkil etuvchi va uni saqlab turuvchi sifatlarni o'z ichiga oladi, bunda tizimning barcha elementlari o'zaro uyg'unlashib, qarama-qarshilik va o'zaro bog'liqlikni bir vaqtning o'zida aks ettiradi.

**Tanqidiy yondashuv.** Tanqidiy fikrlash usuli talabalarning tahliliy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon tizimli modellashirish, axborotni chuqur tahlil qilish, asoslantirilgan yozuvlar yaratish va murakkab vaziyatlarni tahlil qilishga qaratilgan amaliy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Natijada talabalarda dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va o'z fikrlarini ilmiy asosda bayon etish ko'nikmalari shakllanadi.

**Kreativ yondashuv.** Kreativ yondashuv faqat yuqori qobiliyatli talabalar bilan cheklanmay, ijodiy salohiyati to'liq namoyon bo'lmagan yoki qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan talabalarga ham e'tibor qaratishni talab etadi. Ushbu yondashuv har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashib, ularning ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Innovatsion yondashuv.** Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion yondashuv va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish asosiy ahamiyatga ega bo'lib, bunda noan'anaviy, zamonaviy va interaktiv usullardan foydalanish zarur. Ushbu yondashuv o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar tibbiyot asbob-uskunalarining tavsifini o'rganishga oid testlar va masalalarni hal qilishadi. Shu bois amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirishda ko'rgazmali qurollar (diagrammalar, jadvallar, grafiklar, taqsimlangan o'quv materiallari va boshqalar) katta ahamiyatga ega. Vizual rentgen apparati ma'lumot olish, mavzuni chuqurroq tushunish va o'quv materialini uzoq vaqt davomida xotirada saqlashga yordam beradi. Talabalarning puxta va chuqur bilim olishlari, olingan bilimlarni keyinchalik hayotda qo'llay olishlari uchun amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega.

***Quyida Paund, Rebka tajribasi. Elektromagnit to'lqinning gravitatsion maydonda siljishini aniqlash tajribasini mazmuni yoritilgan.***

1960-yilda Paund va Rebka umumiy nisbiylik nazariyasiga muvofiq gravitatsion maydondagi spektral chiziqlarning siljishini aniqlash maqsadida tajriba o'tkazdilar. Bu tajriba AQSh ning Garvard universiteti fizika laboratoriyasidagi 21 metr balandlikka ega minora ichida amalga oshirildi. Minoraning ichki qismi tebranihlardan xalos bo'lish va bir xil haroratni ta'minlash uchun qulay muhit yaratdi. Tajriba davomida, nur dastasi havo orqali o'tishda zaiflashib qolmasligi uchun atmosfera bosimidagi geliy bilan to'ldirilgan, plastmassadan tayyorlangan va diametri 40 santimetr bo'lgan silindrik trubadan foydalanildi. Gamma-nurlanishning manbai sifatida temir kristalli bilan bog'langan  $^{57}\text{Fe}$  yadrolaridan foydalanildi. Temir kristalli  $^{57}\text{Co}$  ni  $^{57}\text{Fe}$  ga kiritish yo'li bilan galvanik usulda tayyorlandi.  $^{57}\text{Co}$  ning yadrolari K-qamrash yo'li bilan qo'zg'atilgan  $^{57}\text{Fe}$  yadrolariga aylanadi va barqaror  $^{57}\text{Fe}$  bilan birgalikda kristall panjalarini hosil qiladi.  $^{57}\text{Fe}$  yadrosidan chiqqan gamma-nurlar balandligi  $h=21$  metr bo'lgan trubadan o'tib,  $^{57}\text{Fe}$  ning uyg'onmagan yadrolariga ega bo'lgan temir kristallaridan iborat yutuvchi moddaga tushadi. Yutilgan gamma-kvantlarning nisbiy soni stsintillyatsion hisoblagichda qayd qilinadi.

Nisbiylik nazariyasiga ko'ra,  $E_\gamma$ -energiyali gamma kvantning gravitatsion massasi

$$m = \frac{E_\gamma}{c^2}$$
 bo'lib, gamma-kvant gravitatsion maydon kuch chiziqlari bo'ylab harakat qilganda,

masalan yuqoridan pastga tik harakatlanayotgan yorug'lik nurining energiyasi

$$\Delta E = mgH = \frac{E_\gamma}{c^2} gH$$
 qiymatga ortib qolishi kerak. Bu yerda: g-erkin tushish tezlanishi; H-

yorug'lik kvantining bosib o'tgan yo'li.

Yorug'lik kvantining chastotasi esa  $\Delta\nu = \left(\frac{E_\gamma}{hc^2}\right)gH$  ga ortadi. Agar yorug'lik kvanti

gravitatsion maydonga teskari yo'nalishda (yuqoriga) harakat qilayotgan bo'lsa, uning chastotasi, aksincha, yuqoridagi qiymatga kamayadi.

Chastota kamayganda yorug'lik to'liqining uzunligi ortgani sababli bu hodisa "qizil siljish" deb ataladi. Masalan, gamma-foton 1 metr masofaga o'tganda, energiyaning nisbiy o'zgarishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\frac{\Delta E}{E} = \frac{\frac{E_\gamma}{c^2} gH}{E_\gamma} = \frac{gH}{c^2} = \frac{9,81 \frac{m}{s^2} 1m}{9 \cdot 10^{16} \frac{m^2}{s^2}} \approx 10^{-16}$$

Qizil siljishni o'lchashga manba va yutgich sifatida  $^{57}\text{Fe}$  foydalanishgan. Bu izotop uchun energiyaning nisbiy o'zgarishi  $\frac{\Gamma}{E_\gamma} \approx 3 \cdot 10^{-13}$ .

Gamma-kvant 21 metr balandlikni o'tganda energiya sinining nisbiy o'zgarishi  $2,5 \cdot 10^{-15}$  ni tashkil etadi. Bu esa  $E_\gamma$  qiymatidan taxminan yuz marta kam. Demak, qizil siljishni sezish uchun energiyaning  $10^{-3}\Gamma$  absolyut xatolik yoki  $\Gamma/E_\gamma = 5 \cdot 10^{-16}$  nisbiy xatolik bilan o'lchash zarur. Bunday katta aniqlikdagi o'lchovlarni amalga oshirish uchun yutgich geli bilan to'ldirilgan truba ichiga joylashtirilib, 1K darajadagi haroratda saqlanadi. Sistematik xatolarni bartaraf etish uchun manba bilan yutgichni o'zaro almashlab turish zarur bo'ladi. Qizil siljish tufayli buzilgan rezonans yutilish manbasini yoki yutgichni  $0,75 \text{ mkm/s}$  tezlikda harakatlantirish orqali Doppler siljishi bilan qoplanib, natijalar tiklanadi. Ko'p marta qayta o'tkazilgan tajriba natijalari asosida qizil siljish uchun  $\Delta\nu = (2,34 \pm 0,01) \cdot 10^{-15}$  qiymat aniqlangan, bu esa nazariy hisob-kitoblarni isbotlaydi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini (PTSI) ni tashkil etish va o'tkazish maqsad va vazifalarni, olingan natijalar va ularning matematik-statistik tahlili bayon qilingan. PTSI 2020-2023-yillarda 4 ta OTMda: O'zMU, SamDU, ToshDTU, BuxDTUda o'tkazildi.

O'tkazilgan PTSIning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. TF fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda, PTSIning amalga oshirishda talabalar tayyorgarligini virtual ishlar va ularga oid yaratilgan yo'riqnomalar asosida muvofiqlashtirish hamda olingan natijalarni chuqur tahlil qilishni ta'minlash.

2. Biz taklif etayotgan interfaol o'qitish metodlarini OTM darajasida qo'llash, shuningdek, turli yo'nalishlarda OTMda o'quv jarayonining samaradorligini yuqori darajada namoyish etayotgan tajribalarni tadqiq qilish.

PTSIning tahlili va natijalarni bayon etishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

TF fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'qitish natijalarini kuzatish;

PTSI natijalarini kompleks ravishda samaradorlik jihatidan tahlil qilish;

TFMni shakllantirishga doir metodist olimlar, mutaxassislar va o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazish va natijalarni tahlil qilish;

interfaol o'qitish metodining samaradorligi va ta'sirini, shuningdek, talabalarga psixologik va pedagogik ta'sirini chuqur o'rganish.

